

JAMIYATDA DEVIANT HOLATLARNING PAYDO BO'LISH OMILLARI

Abdullaeva R.M.

Nizomiy nomidagi O'zMPU Psixologiya kafedrası dotsenti, ps.f.n.

Tel: +998935622308

Djo'rayeva M.T.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

v.b.dotsenti. Tel: +998909714125

Annotatsiya: Maqolada deviant holatlarning paydo bo'lish omillari va deviant

xulq-atvorli bolalarga xos bo'lgan sifatlar hamda ular bilan ishlashda mutaxassis psixologlarga qo'yiladigan talablar tahlil qilingan. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan mazkur toifa bolalariga berilayotgan imkoniyatlar ham o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, deviant xulq-atvor, ta'lim, tarbiya, huquqbuzarlik, jinoyatchilik, o'smir, og'ir kechinma, psixik holat, delikventlik.

ФАКТОРЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ДЕВИАНТНЫХ СИТУАЦИЙ В ОБЩЕСТВЕ

Аннотация: В статье рассматриваются факторы возникновения девиантных состояний и проанализированы качества, присущие детям с девиантным поведением, а также требования, предъявляемые к специалистам-психологам в работе с ними. Отражены и возможности, предоставляемые сегодня нашим государством детям данной категории.

Ключевые слова: молодежь, девиантное поведение, образование, воспитание, правонарушение, преступность, подросток, тяжелое переживание, психическое состояние, деликventность.

FACTORS CONTRIBUTING TO THE EMERGENCE OF DEVIANT BEHAVIORS IN SOCIETY

Abstract: This article examines the factors that contribute to deviant behavior and analyzes the characteristics of children with deviant behavior, as well as the requirements for psychologists working with them. The opportunities provided by our state to children of this category are also reflected.

Keywords: youth, deviant behavior, education, upbringing, delinquency, criminality, teenager, severe experience, mental state, delinquency.

Har bir tarixiy davr inson ma'naviy kamoloti, yoshlar tarbiyasi borasida yangidan-yangi murakkab masalalarni ko'ndalang qo'yaveradi. Hozirgi ichki va

tashqi tahdidlarga boy, o'ta shiddatli va murakkab davrda tarbiya masalasi yanada dolzarblik kasb etmoqda. Hech bir inson onadan tug'ilishi bilanoq, yovuz yoki jinoyatchi bo'lmaydi. Unga yetarli ta'lim-tarbiya, mehr-e'tibor berilmaganidan ma'naviy bo'shliq hosil bo'ladi. Inson oila qurib, farzandli bo'ldimi, albatta uning kelajagi to'g'risida qayg'urishi shart. Farzandni nafaqat moddiy ta'minlash, balki ta'lim-tarbiya, mehr berishi, turli yot g'oyalardan saqlashi ota-onaning eng asosiy vazifasi hisoblanadi. Farzand katta bo'lgach ota-onaga rahmatlar keltirishi yoki aksincha g'am-tashvish keltiradigan kimsaga aylanishi ham mumkin. Shu boisdan farzand tarbiyasiga tug'ilmasidanoq e'tibor qaratish lozim. Aksariyat oilalarda farzand parvarishi, tarbiyasi ko'pchilikning diqqat markazida, barcha sharoitlar yetarli, shunday bo'lsada, yoshlar orasida huquqbuzarlik va jinoyatchilik sodir etilmoqda. Shuningdek yoshlar o'rtasida o'z joniga qasd qilish (suitsid) holati tobora yosharib bormoqda. Yoshlarning erta balog'atga yetishi, oilaviy ajrimlar, erta nikohlanish va uning salbiy oqibatlari, yoshlarning odam savdosi qurboniga aylanishi, yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishi hamda internetdan noto'g'ri foydalanilishi (ijobiy maqsaddan tashqari keraksiz ma'lumotlarga berilish), ularni o'z vaqtida nazorat qilinmasligi kabi salbiy harakatlarning mavjudligi, yoshlardagi yangidan-yangi illatlarni paydo qilmoqda [3].

Shu boisdan har birimiz, mavqeimiz, jinsimiz va yoshimizdan qat'iy nazar har daqiqa, har bir farzandga har tomonlama e'tibor va mehr ko'rsatmas ekanmiz, aks natija kuzatilishi davom etishi tabiiydir. Ayrim o'zbek oilalarida sharqona tarbiyaning yetishmayotganligi, yoshlarning turli ko'ngilxushliklarga berilishi, oilada shakllangan nosog'lom ma'naviy muhit, ota-onalarning o'z farzandiga to'g'ri tarbiya berishni bilmasliklari (befarqlik, loqaydlik, yoki o'ta qattiqqo'llik), yetarlicha vaqt ajratilmasligi yoki mavjud vaqtdan foydalana olmaslik yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu kabi xulqning namoyon bo'lishini "deviant xulq-atvor" nomi bilan atalmoqda. Deviant xulq-atvor - jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki hatti-harakat, u yolg'onchilik, dangasalik, o'g'irlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z joniga qasd qilish va boshqa ko'plab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi. Deviant xulq deganda quyidagilar nazarda tutiladi: **a)** Jinoyatchilik. Muayyan davlatda o'rnatilgan qonun va me'yorlarga nisbatan ayrim shaxslarning salbiy munosabati jinoiy faoliyat, mazkur shaxs esa jinoyatchi hisoblanadi. **b)** Ichkilikbozlik. Uning ko'rinishlari: 1) Alkogolni har-har zamonda iste'mol qilish. 2) Alkogolni ko'p iste'mol qilish. Bu ko'pincha alkogolizmga olib keladi. 3) Alkogolizm-spiritli ichimliklarga patologik (muttasil) o'rganib qolish bilan tavsiflanuvchi kasallik. **v)** Giyohvandlik. Giyohvand yoki unga tenglashtirilgan vositalarga doimiy ro'ju qo'yish va tibbiy ko'rsatmalarsiz iste'mol qilish. **g)** Fohishabozlik. Rasmiy nikohsiz jinsiy munosabat ikki turga bo'lib o'rganiladi: 1. Konkubinat - nikohsiz birga yashash. 2. Fohishabozlik - pul uchun o'z tanasini sotish. G'arbda asosan ikkinchisi qoralansada, Sharqda ikkala holatga ham me'yordan og'ish sifatida qaraladi. Bulardan tashqari, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, boqimandalik kabi salbiy holatlar ham me'yordan chekinishning diqqattalab ko'rinishlaridan hisoblanadi.

Deviant xulq-atvor bir shaxsning salbiy xulq-atvordan iborat faoliyatini, shuningdek, muayyan guruhning og'ma xulq-atvorlarini ham ifodalovchi tushunchadir. Salbiy xulq-atvorlarni o'rgangan olimlarning ta'rifiga asosan: "Deviant xulq-atvor jamiyatda e'lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvor motivlari hamda mavjud imkoniyatlarining bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir". Insonlardagi yuz beruvchi deviant holatlarni paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishida uchta omil muhim ahamiyatga egadir: bular shaxs xususiyatlari, muammoli holat va ijtimoiy nazorat institutlari. Aynan mana shu omillar shaxsning qanday faoliyat yuritishini belgilab beradi.

Shaxs xususiyatlarining shakllanishida irsiy (genetik) omillar, ta'lim-tarbiya hamda ijtimoiy muhitning ta'siri mujassamdir. Aynan farzand tarbiyasida mazkur omillarning har bittasiga alohida e'tiborli bo'lish lozim. Ta'lim-tarbiya jarayonida farzandning yoshi va jinsi hamda uning individualligiga monand maqbul usullar tavsiya etiladi. Ayniqsa o'smirlik va o'spirinlik davrlaridagi fiziologik rivojlanishning psixologik ta'sirini mutanosibligiga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi. O'zaro nomutanosibliklar natijasida xulqda turli-tuman kutilmagan xulq-atvor namoyon bo'lishi mumkin. Shu jihatdan ijtimoiy muhit, ya'ni shaxsni qurshab turgan kishilar: oila a'zolari, tarbiyachi-murabbiylar, tengqurlari hamda o'zgalar tomonidan shaxs to'g'ri baholanishi lozim bo'ladi. Buning uchun esa barcha maskanlarda insonlarni psixologik savodxonligini oshirish talab etiladi. Shu amallarni o'z vaqtida bajarilishi, kuzatilishi mumkin bo'lgan deviant xulq-atvorni ham oldini olishga imkon yaratadi. Asosiy mas'ullik mutaxassis psixologlarga qaratiladi. Ularning amaliy jihatdan insonlar bilan ishlash mahorati juda muhim omildir.

Muammoli vaziyat shunday holatki, u sub'ektdan yechimini talab qiladi, uning yechimi ijtimoiy me'yorlarda ko'rsatilgan bo'lsada, u yoki bu sabablarga ko'ra, ushbu me'yorlarni qo'llash qiyinroq bo'ladi. Natijada shaxs ijtimoiy sanksiyaga uchraydi. Ijtimoiy norma va ijtimoiy sanksiya bir-biriga bog'liqdir[2]. **Ijtimoiy norma** - shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq - atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakatlar talablaridir. Normalarni ayrim - alohida shaxslar ishlab chiqmaydi, ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo'lishi ijtimoiy tajriba, hayotiy vaziyatlarda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilganligi fakti bilan xarakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyada muhrlanadi. Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo'lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi. **Ijtimoiy sanksiyalar** - normalarning shaxs xulqida namoyon bo'lishini nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mexanizmlari bo'lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri ob'yektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz. Har bir alohida shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida xulqida namoyon etadi. *Rol* - shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatlardagi huquq va burchlaridan iborat

harakatlari majmuini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bo'lsak, uni bajarish - u yoki bu oliy o'quv yurtida tahsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, axborot-rusurs markaziga a'zo bo'lish, stipendiya olib, ma'muriyatning ijtimoiy himoyasida bo'lish kabi qator huquqlar bilan birgalikda o'sha ta'lim muassasasi ichki tartib - intizomi normalariga so'zsiz bo'ysunish, darslarga o'z vaqtida kelish, reyting baholov talablari doirasida kundalik o'zlashtirishni bajarish, amaliyotda bo'lish, rahbariyatning bergan jamoatchilik topshiriqlarini ham bajarish kabi qator burchlarni ham o'z ichiga oladi[4]. Bu rol uning uyga borgach bajaradigan "farzandlik" roli (ota-ona, yaqin qarindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan farq qiladi. Ya'ni, konkret shaxsning o'ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli-tuman ijtimoiy rollarning xarakteridan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, kimdir "tartibli, ba'mani, fozil, axloqli va odobli" deyilsa, kimdir - be'mani, bebosh, o'zgaruvchan, ikki yuzlamachi (ya'ni, bir sharoitda juda qobil, boshqa joyda - betartib) degan hayotiy mavqega ega bo'lib qoladi. Hayotda shaxs bajaradigan ijtimoiy rollar ko'pligi sababli ham, turli vaziyatlardagi uning mavqei - statusi ham turlicha bo'lib qoladi. Agar biror rol shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida uning o'zi uchun o'ta ahamiyatli bo'lsa (masalan, talaba roli), u boshqa rollarni unchalik qadrlamasligi va oqibatda, o'sha vaziyatda boshqacharak, noqulay va noboproq mavqeni egallab qolishi mumkin. Qolaversa, rollarning ko'pligi ba'zan rollar ziddiyatini ham keltirib chiqarishi mumkinki, oqibatda - shaxs ichki ruhiy qiyinchiliklarni ham boshdan kechirishi mumkin. Masalan, sirtidan tahsil olayotgan talaba yakuniy nazoratlar paytida ishlab turgan korxonasiga nazorat-taftish kelishi va uning faoliyatini tekshirayotganligini bilib, ruhiy azobga tushadi - bir tomondan, talabalik va uning talablari, ikkinchi tomondan - kasbdoshlar oldida uyalib qolmaslik uchun har kuni ishxonaga ham borib kelish. Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va bozor munosabatlari sharoitidagi raqobat muhiti shaxsdan bir vaqtning o'zida qator qobiliyatlar va malakalarni talab qilmoqdaki, ayniksa, yoshlar o'zgaruvchan sharoitlarga tezroq moslashish uchun ba'zan bir-biriga zid xislatlarni ham xulqda namoyon qilishga majbur bo'lishmoqda. Masalan, yosh oila boshlig'i, talaba, ota - onalarga moddiy jihatdan qaram bo'lmaslik uchun, bir vaqtning o'zida ham itoatkor, intizomli talaba va ishdan keyin esa - chaqqon va uddaburon, tadbirkor, tijoratchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'lishi mumkin. Bu holat tabiiy, shaxsdan kuchli iroda, doimiy intiluvchanlik va o'z ustida muttasil ishlashni talab qiladi[4].

Ijtimoiy normalar, sanksiyalar, rollar ijtimoiy mexanizmlar sifatida shaxs xulq-atvorini ma'lum ma'noda boshqarib, muvofiqlashtirib turishga yordam beradi. Lekin insonning komilligi, uning axloq - ijtimoiy normalar doirasidagi maqbul harakati uning o'ziga ham bog'liqdir. Odamning o'z - o'zini anglashi, bilishi va o'z ustida ishlashi avvalo uning diqqati, ongi bevosita o'ziga, o'z ichki imkoniyatlari, qobiliyatlari, hissiy kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. Ya'ni, ijtimoiy xulq - shaxs tomonidan uni o'rab turgan shaxslar, ularning xulq-atvorlariga e'tibor berishdan tashqari, o'zining shaxsiy harakatlari oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borish orqali, rollarni muvofiqlashtirishni ham taqozo etadi. Shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilishidan hosil bo'lgan obraz - "Men" - obrazi deb atalib, uning qanchalik reallikka yaqinligi shaxs barkamolligining mezonlaridan hisoblanadi. "Men" - obrazining ijtimoiy psixologik

ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi. Demak, har bir inson o'zini, o'zligini kanchalik aniq va to'g'ri bilsa, tasavvur qilolsa, uning jamiyat normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo'ladi, ya'ni u tarbiyalangan bo'ladi[2]. Har qanday ota-ona o'z farzandini har tomonlama barkamol, qalbi va ruhiyatini turli illatlardan forig' bo'lishini, kelajakda hayotda o'z o'rnini topishini istaydi. Bu istakni amalga oshirish uchun esa albatta o'zlari ham har tomonlama ibrat-namuna darajasida bo'lishlari lozimdir. Shaxs tarbiyasida eng birinchi va eng muhim **ijtimoiy nazorat instituti** bu - oiladir. Farzand tarbiyasida va barkamol avlodni shakllantirishda sog'lom oila muhitining o'rne kattadir. Farzand tug'ilganidan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar yosh avlodning dunyoqarashini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydilar, his etadilar. Inson hatti-harakati, xulq-atvori va faoliyatini ta'lim muassasalari, mahalla, mehnat jamoasi, umumdavlat miqyosida esa, qonunni muhofaza qilish organlari (sud, prokuratura, ichki ishlar) ham nazorat qilib boradi va ushbu shaxsga nisbatan ijtimoiy institutlari vazifasini bajarishadi. Lekin, albatta har bittamiz shaxsning psixologiyasini chuqur bilishimiz va unga monand to'g'ri yondashishimiz lozimdir.

Jamiyatdagi ma'naviy muhitning ta'sirini kuchaytirish, yoshlarga ta'lim-tarbiya berish shaxs ijtimoiylashuvining tizimli amalga oshishiga ko'maklashadi. Jamiyatimizda mavjud ma'naviy-axloqiy me'yorlar yoshlarimizni jamiyatda o'z o'rinlarini topishlariga, intiluvchan, vatanparvar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Xoxlagan xulq agar jamoatchilik fikriga to'g'ri kelmas ekan, u **deviant** deb ataladi. Agar qonunga nomuvofiq bo'lsa bu - **delikvent** deb ataladi. Nomaqbullik bu jazoni anglatmaydi. Jinoiy javobgarlik delikvent va jinoiy xulq orasidagi chegaralar orqali tavsiflanadi. O'smirlar o'rtasida delikvent xulq-atvor doimiy tarzda o'zgarib bormoqda, bu achinarli holdir. Birinchidan, o'smirlar muhitida deviant xulq-atvorning hissi ulardagi inqiroz holatiga muvofiq rivojlanadi. Ikkinchidan, bu xulq-atvorning kengayishiga yoshlar xulqidagi turli submadaniy o'zgarishlar turli mintaqalarda ba'zi deviant hisoblangan hatti-harakatlari me'yor deb qabul qilinganligi sabab hamdir[1].

O'smirlar orasida asosan og'ma xulq-atvorning quyidagi ko'rinishlari qayd etilgan: **1.** O'qish va ish faoliyatidan bosh tortish. Maktabda darslardan qochish, doimiy tarzda vazifalarni bajarmaslik, dars davomida e'tiborsiz bo'lish, o'qishni davom ettirishni xoxlamaslik. **2.** Noformal guruhlarining jamiyatga qarshi kayfiyatda bo'lib turishi. **3.** Jamiyatga qarshi majburiy faoliyatlar. Bular tajovuzkorlik, o'g'rilik, talonchilik, mol-mulkka zarar yetkazish va yo'qotish shunga o'xshash faoliyatlar. **4.** Jamiyatga nisbatan g'arazgo'ylik faoliyati. Mayda o'g'irlik, kichik chayqovchilik, tovlamachilik shaklida aks etadi. **5.** Jamiyatga qarshi seksual harakatlar. Bu ko'rinishdagi og'ma xulq-atvor butunlay bexayolik, axloqsiz seksual harakatlar, yo'nalishlari odatiy bir jinslilar orasida. **6.** Alkogol mahsulotlarini iste'mol qilish va uning asoratlari. **7.** Giyohvand moddalar iste'mol qilish va uni ng asoratlari. **8.** Uydan qochib ketish va daydi bo'lish. **9.** Turli-tuman o'yinlarga beriluvchanlik. **10.** Boshqa har-xil ko'rinishdagi og'ma xulq-atvorlardir.

Delikvent xulqli shaxslar o'zlarining ichki ziddiyatlarini nevrotiklarga o'xshab himoya mexanizmlari bilan qo'riqlay olmaydilar. Lekin ular shizofreniklarga o'xshab illyuziyalar dunyosiga chekinib, reallik bilan o'z aloqalarini uzmaydilar ham. Ichki zo'riqlashga bardosh berish uchun ular ichki kasallikka ham murojaat qilmaydilar. Aksariyat hollarda ular ta'qib qilinadigan, davlat tomonidan va qonun yo'li bilan jazolanadigan ta'qiqlangan harakatlar sodir qilish yo'li bilan o'z ichki voqeliklaridan qutuladilar. Agar ularning avtobiografiyasiga nazar solinsa, aksariyat holatlarda oilalarida yoshligida ularni yaxshi ko'rishmagan, suyishmagan va shaxs sifatida qadrlanmaganliklari kuzatiladi. Hech bo'lmaganda ularga e'tibor berishmagan, ularning tarbiyasini "qo'ldan chiqarishgan", bunday shaxslar yetishmovchilik ekstremal holatini, kattalar tomonidan muloqot va e'tibor berilmaslik holatlarini boshdan kechirishgan. Buning oqibatida esa - psixologik tuzilishdagi kuchli yetishmovchilik bo'lgan[1]. Bunday ahvolga yana qo'shimcha jarohatlovchi hodisalar: farzandlarga nisbatan shafqatsiz munosabat (jismoniy jazo) yoki ularning ruhiy shafqatsizlik va befarqlik sharoitida tarbiyalanishlari ham qo'shilishi mumkin. Delikvent xulq tarbiyada jazolash usuli bilan uzviy bog'liq. Shunday muhitda o'sgan farzand jazolash va shafqatsiz muomala haqidagi bilimdan boshqa narsani o'zlashtirmaydi. Bunday tarbiya qurboni keyinchalik o'z tajribasini boshqalarga ham tarqatadi. Uning o'zi bilan yoshligida nima qilishgan bo'lsa, o'z qurbonlari bilan ham shunday yo'l tutadi[1].

Delikvent xulqli shaxs ruhiy tuzilishini o'zligini yo'qotish qo'rquvi, birovni yaxshi ko'rmaslik, yakkalanish, yashashning ma'nosizligi, ojiz g'azab va umidsizlik bilan bog'liq og'ir kechinmali psixik holatlar tashkil qiladi. Agar bunday shaxslar o'ziga o'xshagan shaxslar bilan bir guruhga birlashsa, o'z shaxsiy vaziyatining chidab bo'lmazligini unutishi oson kechadi. Agar ular birgalikda jinoyat sodir qilishsa, bunday jinoyat odatda jamiyat vakillariga qarshi qaratilgan bo'ladi. Guruh ishtirokchilari endi tarbiyani so'zma-so'z tushunib, bir vaqtlar ota-onalari ularga nisbatan qo'llagan tarbiyaning qurbonlari bo'lishdan qutuladilar. Shu bilan birga ular endi o'zlarining ahvolini qoniqtiradigan mashg'ulot bilan shug'ullanishga yo'l qo'ymayotgan turli qarshiliklarning qurbonlari ham emaslar. Endi ular faol harakat qilayotgan aybdorlardir. Chunki bundaylar o'z tasavvurlarida hech bo'lmaganda o'z hoxishi bilan qonunni oyoqosti qilayotganidan ham qoniqish hosil qilishi mumkin. Ko'p hollarda qasos fantaziyasiga yana ulug'lik va dabdababozlik fantaziyasi ham qo'shiladi. Delikvent xulq shaxsga o'zini davlat va jamiyatning huquqni himoya qiluvchi organlariga qarshi tura oladigan shaxs deb tasavvur qilish imkonini beradi.

Umuman, shaxs rivojlanishi jarayonida ularda navbatdagi o'ziga xos og'ma xulq-atvor ko'rinishlarini belgilash mumkin: maqsadsiz yashash, beparvolik, ularning kelajakka intilishlari ahamiyatsiz oddiy qiziqishlar orqali sezilib turadi, umumqabul qilgan barqaror qadriyatlar ular tomonidan rad qilinadi, o'qishga, bilim olishga intilishi so'nadi. Delikventlik asosan tengdoshlari bilan munosabatlarda aks etib, atrofdagi normal yoshlar bilan aloqalarga salbiy ta'sir qiladi. Bunday o'smirlar ko'pchiligining oilasida nosog'lom psixologik muhit hukmronlik qiladi. Asosan o'g'il bolalar o'rtasida yuzaga keladigan og'ma xulq-atvorning 50% i ichkilikbozlikka berilish orqali yuzaga keladi va asosan konfliktlarga sabab bo'ladi. Natijada kutilmagan holatlar sodir bo'lishi mumkin. O'smirlarning mantiqsiz, rejasiz,

yuqori darajadagi tafakkursiz rivojlanishi unda deviant xulq bo'lishini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Deviant tip o'smirlardagi o'ziga xos xususiyat - bu o'zini o'rnini olamga ma'lum qilish, dunyo unga qarab boqishini istashdan iboratdir. Ularda ham vijdon, o'z-o'zini nazorat qilish, hissiyotlar mavjud, lekin ijtimoiy emas. Ular tengqurlaridan tafakkurining quyi darajasi bilan farqlanadilar va asab tizimidagi turli buzilishlar, o'smirlar deviantligini qo'zg'atishi mumkin: kuchli hissiyot, konflikt, agressiya, beqarorlik va boshqalar. Demakki, deviant xulq-atvor ham o'z-o'zidan paydo bo'lmasdan, ijtimoiy muhit mahsuli hisoblanadi. Shunday ekan, har bir shaxs atrofida qilargana o'z vaqtida mehr ko'rsatsa, e'tiborli bo'lsagina ushbu illatlar oldi olinadi va jamiyatda ular barham topishiga imkon yaratiladi. Buning uchun ijtimoiy institutlar (oila, ta'lim muassasalari, mehnat jamoalari, tengqurlar, mahalla va boshqalar) birgalikdagi tarbiyaga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Mutaxassis psixologlar esa bu borada asosiy tashabbuskor bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Otajanov M. Psixoanaliz asoslari. Toshkent. "O'zbekiston". 2004.
2. G'oziev E.G'. Ontogenez psixologiyasi: nazariy-eksperimental tahlil. T.: Noshir. 2010. 360 b.
3. Abdullayeva R.M. Yoshlardagi deviant xulq-atvor sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari. "Obrazovanie i nauka v XXI veke". Nauchno-obrazovatel'nyy elektronnyy jurnal.vypusk №21 (tom 3).(dekabr, 2021). S 1240-1249.